



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№2(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 156 sahifa,
2-fevral, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Kasbiy mahorat va tajribalarni rivojlantirishning mazmuni, shakl va usullari	22
<i>Yo'ldasheva Feruzaxon Shavkatbekovna</i>	
O'zbek tili darslarida 5E modelini qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish: Chimboy tumani 36-sonli ixtisoslashtirilgan maktab misolida	26
<i>Kojamuratova Ulbosin Punkitbaevna</i>	
Shaxs ijtimoiy faolligi: tushuncha va tahlil	29
<i>Baxriyeva Nargiza Axmadovna</i>	
Fiziognomika va psixologik yondashuvlar asosida portret qalamtasviri ta'limini takomillashtirish	33
<i>Babadjanov Axmadjan Xudayberdiyevich</i>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish	37
<i>Nusharov Bobir Bolbekovich</i>	
Личностные характеристики как ассимиляция системы отношений младших школьников и предмет воспитательного воздействия учителя	41
<i>Олимова Азиза Кахрамоновна</i>	
"Vitagen ta'lim texnologiyalari" asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarda perseptiv qobiliyatni rivojlantirishga o'rgatishning didaktik imkoniyatlari	47
<i>Tursunboyeva Kamola Iloxmon qizi</i>	
Ekologik ta'lim va tarbiya asosida talabalarda ekoturistik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari	50
<i>Kamolov Baxtiyor Xasanboyevich</i>	
Individual ta'lim trayektoriyasi: maktabgacha yoshdagi bolalarda ekspressiv nutq buzilishlarining o'ziga xos xususiyatlari	54
<i>Fayziyeva Nozima Oybek qizi</i>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida mantiqiy masalalardan foydalanish samaradorligi	59
<i>Ibragimova Nozima Ulug'bekovna, Pardayeva Hosila Qudratulla qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda tarbiyachining kreativ roli	64
<i>Botirova Lobar Kamolovna</i>	
O'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish	69
<i>Kaipova Tazagul, Kaipova Elmira</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini zamonaviy kasb-hunarlariga qiziqitirishda integrativ usullardan foydalanish	73
<i>Ergasheva Nigora Erkinovna</i>	
Proposals for the Development of Education in Teaching Musical-Historical and Theoretical Subjects	76
<i>Sobirova Gulkhayo Aktamjonovna</i>	
Raqamli ta'lim sharoitida talabalarda mediakompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari	81
<i>Rustemov Abseit Trijan o'g'li</i>	
Hamkorlik ko'nikmalarini takomillashtirishga oid tajriba-sinov ishlarini tashkil etish mazmuni	85
<i>Baxramova O'ramol Uralovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda nazariy asoslanish mohiyati	88
<i>Boxodirova Muxlisa Xoljigitovna</i>	
Zoologiya fanini o'qitish jarayonida talabalarning ilmiy-tadqiqot faolligini rivojlantirish mexanizmlari	92
<i>Dushekeeva Nasiba Rustembaevna, Arepbaev Islambek Muratbaevich</i>	
Ingliz tilini o'rganishda zamonaviy texnologiyalarning roli	96
<i>Ergasheva Mehriyona</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining tasviriy ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari	100
<i>Jummayeva Sayyora Shokir qizi</i>	



The Role of Digital Technologies and Virtual Reality in Modern English Teaching Methodologies	104
Seilkhanova Rita Nurniyazovna, Kalbaeva Mexriban Elbrus qizi	
Sog'lom separatsiya orqali yoshlar sog'lig'ini mustahkamlash: tibbiy-psixologik yondashuvning empirik tahlili	109
Mavlyanova Surayo Sultanaliyevna	
Badiiy-tarixiy meros asosida pedagog shaxsini tarbiyalash: nazariya va amaliyot uyg'unligi	112
Qodirova Mavluda Maxodir qizi	
Gamified Programming Platforms: Analysis and Recommendations	116
Ra'nokhon Ne'matjon kizi Rakhimova	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida giperaktiv bolalar bilan ishlashning ilmiy-nazariy asoslari	123
Raimqulova Sojida Abdusaid qizi	
Qandli diabet bilan og'rigan bemorlarga pedagogik yordam ko'rsatish tizimi.....	126
Shermatova Yakut Sabirovna	
O'smirlar o'rtasida kiberbulling	129
Tashbekova Aziza Mirsuxbatovna	
Uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun tyutorlik yordamini tashkil etish	132
Tolipova Pokiza Xasan qizi, Isamuxamedova Dildora Raxmatilayevna	
Zamonaviy maktablarda xavfsizlik madaniyatining roli.....	135
Turdiyeva Zilola Jalilovna	
Global akademik reyting va raqobat muhitida xalqaro olimpiadalarning o'rni	138
Xalikova Umida Mirovna	
Tarbiyachining bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish jarayonidagi o'rni	143
Xasanova Shaxnoza To'xtasinovna, Rahimova Umida Abdurasul qizi	
Biologiya darslarida TIMSS topshiriqlarini integratsiyalash	148
Zayniyev Suxrobjon Islombek o'g'li, Komiljonova Muslima Shuxrat qizi	
О трансверсальных компетенции воспитателя дошкольного образования.....	153
Садыкова Шоиста Акбаровна, Назарматова Дилшода Умаралиевна	

KASBIY MAHORAT VA TAJRIBALARNI RIVOJLANTIRISHNING MAZMUNI, SHAKL VA USULLARI

Yo'ldasheva Feruzaxon Shavkatbekovna

Andijon davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy mehnat bozori talablariga javob beradigan malakali mutaxassislarni tayyorlash jarayonida kasbiy mahorat va tajribalarni rivojlantirishning dolzarb masalalari yoritilgan. Tadqiqotda kasbiy mahoratni shakllantirishning mazmuni ochib berilib, unga nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, shaxsiy fazilatlar hamda kasbiy kompetensiyalar kirishi asoslab berilgan. Shuningdek, kasbiy tayyorgarlikning turli bosqichlarida qo'llaniladigan zamonaviy shakl va usullar tizimli tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: kasbiy mahorat, kasbiy kompetensiya, malaka oshirish, ta'lim usullari, amaliy tajriba, raqamli texnologiyalar, kadrlar tayyorlash, kasbiy rivojlanish.

Abstract: This article examines current issues in the development of professional skills and practical experience in the training of qualified specialists who meet the requirements of the modern labor market. The study reveals the core content of professional skill development, which includes theoretical knowledge, practical abilities, personal qualities, and professional competencies. In addition, modern forms and methods applied at different stages of professional training are systematically analyzed.

Key words: professional skills, professional competence, professional development, educational methods, practical experience, digital technologies, personnel training, professional growth.

Аннотация: В данной статье рассматриваются актуальные вопросы развития профессиональных навыков и практического опыта в процессе подготовки квалифицированных специалистов, отвечающих требованиям современного рынка труда. Раскрывается содержание формирования профессионального мастерства, включающего теоретические знания, практические умения, личностные качества и профессиональные компетенции. Особое внимание уделено анализу современных форм и методов обучения, применяемых на различных этапах профессиональной подготовки.

Ключевые слова: профессиональное мастерство, профессиональная компетентность, повышение квалификации, методы обучения, практический опыт, цифровые технологии, подготовка кадров, профессиональное развитие.

KIRISH

Jahon miqyosida ta'lim sifatiga qo'yilayotgan talablardan biri 21-asr pedagogikasini yangi paradigmalar hamda raqamli ta'lim transformatsiyasi asosida takomillashtirish zaruratini keltirib chiqardi. Chuqur kasbiy bilim, undan unumli foydalanish ko'nikmalari, shaxsiy tashabbuskorlik, ijodkorlik va mustaqillik har doim pedagog faoliyatini alohida ajratib turgan bo'lsa, 21-asr pedagogi uzluksiz ta'lim olish, o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini rivojlantirish, shuningdek, o'z-o'zini takomillashtirish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.

Finlyandiyada Kattalar Ta'limi Tashkiloti (FAEA), Fransiya "tajriba orqali olingan bilimlarni tasdiqlash" – "Validation des acquis de l'expérience" (VAE) tushunchasining kiritilishi natijasida norasmiy va informal ta'limning me'yoriy-huquqiy bazasi yaratilgan. Germaniyada Weiterbildungspass (uzluksiz ta'lim pasporti) va Lernkultur Kompetenzentwicklung (kompetensiyalarni rivojlantirishda ta'lim madaniyati) joriy qilingan bo'lsa, Rossiyada "Lifelong Learning" (hayot davomida o'rganish) g'oyasi malaka oshirish kurslari hamda qo'shimcha va to'ldiruvchi ta'lim dasturlariga tatbiq etilgan.

Uzluksiz ta'lim nazariyasining konseptual holatlaridan farqli o'laroq, kattalar ta'limi nazariyasi va amaliyoti asosida katta yoshdagi shaxs tabiatidan kelib chiqqan tamoyillar yotadi, ya'ni katta yoshdagi inson ehtiyoj sezmaguncha o'qimaydi, u faqat o'z fikriga ko'ra zarur bo'lgan bilimlarni egallaydi va ko'proq ish jarayonida o'rganadi. Boshqacha qilib aytganda, yoshi katta shaxs ta'lim jarayonida, aniqrog'i, ushbu jarayonning barcha



parametrlari – maqsadlar, mazmun va o'qitishning tashkiliy shakllarini belgilashda yetakchi rol o'ynashga tayyor bo'ladi.

Kasbiy mahorat va tajribalarni rivojlantirish – nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash, kompetensiyalarni oshirish hamda ijodiy yondashuvni shakllantirish jarayonidir. U tarkibiy jihatdan bilim, ko'nikma, malaka, shaxsiy sifatlar va motivatsiyani o'z ichiga oladi. Rivojlantirish shakllariga o'quv kurslari, seminarlar, mentorlik va "ustoz–shogird" tizimi kirsa, usullariga treninglar, keys-stadi, loyihaviy ishlar hamda innovatsion pedagogik texnologiyalar kiradi.

Kasbiy mahoratni rivojlantirish – uzluksiz jarayon bo'lib, u mutaxassis faoliyati samaradorligini oshirishga hamda zamon talablariga moslashishiga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hozirgi zamon pedagogikasi va psixologiyasida "kasbiy mahorat" tushunchasiga turlicha izohlar beriladi. Jumladan, "Pedagogik ensiklopediya"da ushbu tushuncha quyidagicha ta'riflanadi: "O'z kasbining mohir ustasi bo'lgan, yuksak darajada madaniyatli, o'z fanini chuqur biladigan, yondosh fanlar sohalarini tahlil eta oladigan hamda tarbiyalash va o'qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutaxassis". Ushbu ta'rif mohiyatidan kelib chiqib, tarbiyachining kasbiy mahorati tushunchasi mazmunini quyidagicha izohlash mumkin:

1. Madaniyatning yuqori darajasi, bilimdonlik va aql-zakovatning yuksak ko'rsatkichi.
2. O'z sohasiga doir bilimlarning mukammal egasi bo'lishi.
3. Pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha bilimlarni puxta egallaganligi hamda ulardan kasbiy faoliyatida samarali foydalana olishi.
4. O'quv-tarbiyaviy ishlar metodikasini mukammal bilishi.

Kasbiy mahorat tarbiyachilarda pedagogik ijodkorlik, pedagogik texnika, ta'lim-tarbiya jarayonida tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi hamkorlik, muloqot olib borish taktikasi, nutq madaniyati va tafakkurni rivojlantiradi. Shuningdek, u tarbiyachining ma'naviy-ma'rifiy hamda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va amalga oshirish, ushbu jarayonda xulq-atvor va hissiyotlarni boshqara olish xususiyatlarini shakllantiradi hamda o'z kasbini doimiy ravishda rivojlantirib borishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatlar tizimi to'g'risida muhim ma'lumotlar beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda kasbiy mahorat va tajribalarni rivojlantirish jarayonini o'rganishda nazariy va amaliy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Ma'lumotlar pedagogika va psixologiya sohasiga oid ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar, ilmiy maqolalar hamda ilg'or xorijiy va milliy tajribalarni tahlil qilish orqali olindi. Shuningdek, pedagoglar faoliyatiga oid mavjud ilmiy manbalar asosida taqqoslash va umumlashtirish usullari qo'llanildi. Olingan ma'lumotlar mantiqiy-tahliliy yondashuv asosida qayta ishlanib, kasbiy mahoratning tarkibiy jihatlari, rivojlanish shakl va usullarining o'zaro bog'liqligi aniqlandi. Tahlil jarayonida nazariy xulosalar chiqarilib, ularning amaliy ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kasbiy mahorat tarbiyachilarning pedagogik faoliyati zahirida izchil ravishda takomillashib boradi. Kasbiy mahorat – tarbiyachilarning shaxsiy (bolajonligi, xayrixohligi, insonparvarligi, mehribonligi va h.k.) hamda kasbiy (bilimdonligi, zukkoligi, fidoyiligi, ijodkorligi, qobiliyati va hokazo) fazilatlarini belgilovchi xususiyat bo'lib, tarbiyachilarning ta'lim-tarbiyaviy faoliyatida yuqori natijalarga erishishini hamda kasbiy mahoratini doimiy ravishda takomillashtirib borish imkoniyatini ta'minlovchi faoliyatdir. U o'z sohasini mukammal bilgan, pedagogik-psixologik va metodik tayyorgarlikka ega bo'lgan, tarbiyalanuvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo'llarini izlab topish maqsadida amaliy faoliyat olib boradigan har bir tarbiyachining kasbiy faoliyatida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, kasbiy mahorat egasi bo'lish uchun tarbiyachi o'z o'quv predmetini davr talablari asosida chuqur bilishi, pedagogik va psixologik bilimlarga ega bo'lishi hamda insoniylik, izlanuvchanlik va fidoyilik sifatlarini o'zida mujassamlashtirishi lozim. L.P. Rachenko kasbiy mahoratni pedagogik san'atning bir qismi sifatida ta'riflab, shunday yozadi: "Kasbiy mahorat deganda tarbiyachining pedagogik-psixologik bilimlarni, kasbiy malaka va ko'nikmalarni mukammal egallashi, o'z kasbiga qiziqishi, rivojlangan pedagogik fikrlashi va intuitiviyasi, hayotga axloqiy-estetik munosabatda bo'lishi, o'z fikr-mulohazasiga ishonchi hamda qat'iy irodasi tushuniladi".

Tarbiyachilik sharaflı, biroq nihoyatda murakkab kasbdır. Yaxshi tarbiyachi bo'lish uchun pedagogik nazariyani egallashning o'zi yetarli emas. Chunki pedagogik nazariyada bolalarni o'qitish va tarbiyalashga oid umumiy qonun-qoidalar hamda umimlashtirilgan uslubiy g'oyalar bayon etiladi, tarbiyalanuvchilarning yosh va individual xususiyatlarini e'tiborga olish zarurligi ta'kidlanadi. Maktabgacha ta'lim hayoti esa murakkab va rang-barang pedagogik jarayon bo'lib, amaliyotda pedagogik nazariyaga to'liq mos kelmaydigan vaziyatlar ham uchrab turadi. Bu holat tarbiyachidan keng bilimdonlikni, puxta amaliy tayyorgarlikni, yuksak pedagogik mahorat va ijodkorlikni talab etadi.

Shu sababli hozirgi kun tarbiyachisi:

- pedagogik faoliyatga qobiliyatli, ijodkor va ishbilarmon;
- milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlarni, dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan, diniy ilmlardan ham xabardor, ma'naviy barkamol;
- vatanparvarlik burchini to'g'ri anglagan, e'tiqodli fuqaro;
- mutaxassislikka doir bilimlarni, psixologik va pedagogik bilim hamda mahoratni, shuningdek, nazariy ilmlarni mukammal egallagan;
- tarbiyachilik kasbini va bolalarni sevuvchi, har bir tarbiyalanuvchi ulg'ayib, yaxshi inson bo'lishiga chin dildan ishonadigan, ularning shaxs sifatida rivojlanib, inson sifatida kamol topishiga ko'maklashadigan;
- erkin va ijodiy fikrlay oladigan, talabchan, adolatli hamda odobli bo'lishi lozim.

Davlatimiz maktabgacha ta'lim sohasida ilgari surilayotgan vazifalarning amalga oshirilishi ko'p jihatdan tarbiyachilar faoliyatiga bog'liq. Hozirgi kunda ta'lim-tarbiyadan ko'zda tutilayotgan maqsadlarga erishish, tarbiyalanuvchilarning xilma-xil faoliyatini tashkil etish, ularni bilimli, odobli, e'tiqodli, mehnatsevar, erkin fikrlovchi va ongli barkamol inson qilib voyaga yetkazish tarbiyachi zimmasiga katta mas'uliyat sifatida yuklatilgan.

Pedagogga xos bo'lgan kasbiy mahoratning muhim tarkibiy qismi pedagogik muloqot madaniyati bo'lib, u pedagogning bolalar jamoasi, ota-onalar, hamkasblar hamda rahbariyat bilan olib boradigan muloqot jarayonida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, pedagogning bolalar jamoasi bilan o'zaro muloqoti alohida ahamiyat kasb etadi. Pedagog tarbiyalanuvchilar bilan muloqotga kirishishga va uning samarali bo'lishiga intiladi. Pedagogik muloqot kuchli ruhiy-psixologik ta'sirga ega bo'lgani sababli, uni to'g'ri tashkil etish pedagog zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

Agar pedagogik muloqot noto'g'ri tashkil etilsa, bolalarda qo'rquv, ishonchsizlik, diqqat va xotiraning susayishi, ish qobiliyatining pasayishi hamda nutq me'yoringing buzilishi kabi salbiy holatlar yuzaga kelishi mumkin. Aksincha, nazariy-pedagogik va amaliy jihatdan to'g'ri tashkil etilgan muloqot ushbu holatlarning oldini oladi va tarbiyalanuvchilarda ta'lim olishga, o'rganishga hamda mustaqil fikrlashga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi.

Kasbiy mahorat fahm-farosat va bilimlarning uyg'unligi, tarbiyaviy jarayondagi qiyinchiliklarni yengishga qodir bo'lgan nufuzli rahbarlik, bolalar qalbining nozik jihatlarini his eta olish, ichki dunyosi zaif bo'lgan bola shaxsiga ehtiyotkorlik bilan yondashish, donolik, ijodiy dadillik, ilmiy tahlil, tasavvur va fantaziyaga moyillik kabi sifatlarning mujassam ifodasidir. Kasbiy mahorat tarkibiga pedagogik bilimlar va fahm-farosat bilan bir qatorda pedagogik texnika sohasidagi malakalar ham kiradi. Ushbu malakalar tarbiyaga nisbatan kamroq kuch sarflab, yuqori natijalarga erishish imkonini beradi.

Pedagogik texnika tarbiyachining ichki kechinmalari va tashqi qiyofasi uyg'unligini ta'minlashga xizmat qiladi. Pedagogning mahorati uning ichki madaniyati va pedagogik tashqi ifodaliligida namoyon bo'ladi. Pedagogik texnikani egallash uchun, avvalo, tarbiyachi o'z mutaxassisligini, o'qitadigan predmetini, pedagogika va psixologiya fanlarini davr taraqqiyoti darajasida chuqur bilishi hamda kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalay olishi zarur. Chunki pedagogik texnika individual va shaxsiy xususiyatga ega bo'lib, har bir tarbiyachi o'zining kasbiy yo'nalishi va kasbiy "laboratoriyasi"ni mustaqil fikrlash hamda mustaqil bilim olish orqali shakllantiradi. Aynan shu jarayonda mohir tarbiyachiga xos fazilatlar rivojlanadi va tarbiyachi kasbiy ideal sari izchil harakat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, kasbiy mahorat va tajribalarni rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimida pedagog kadrlar tayyorlashning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Kasbiy mahorat pedagogning shaxsiy va kasbiy fazilatlarini, nazariy bilimlari hamda amaliy ko'nikmalarining uyg'unlashuvi asosida shakllanib, uning ta'lim-tarbiyaviy faoliyati samaradorligini belgilaydi. Tadqiqot jarayonida kasbiy mahoratning uzluksiz rivojlantirishini pedagogning ijodiy yondashuvi, pedagogik muloqot madaniyati, pedagogik texnika va kasbiy motivatsiyasi bilan chambarchas bog'liq ekanligi aniqlandi. Shuningdek, zamonaviy mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlash jarayonida raqamli texnologiyalar, interfaol va innovatsion ta'lim usullaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etishi asoslab berildi.



Tadqiqot natijalariga tayanib, quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

- *birinchidan*, pedagoglarning kasbiy mahoratini rivojlantirishga yo'naltirilgan malaka oshirish va qayta tayyorlash dasturlarida amaliy mashg'ulotlar ulushini kengaytirish lozim;
- *ikkinchidan*, "ustoz–shogird" va mentorlik tizimini ta'lim muassasalarida tizimli ravishda joriy etish orqali pedagogik tajriba almashuvini kuchaytirish zarur;
- *uchinchidan*, raqamli ta'lim muhitida pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan onlayn platformalar va elektron resurslardan foydalanishni kengaytirish tavsiya etiladi.

Shuningdek, pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi trening va seminarlarni muntazam tashkil etish pedagoglarning kasbiy mahoratini yuksaltirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasini yangi rivojlanish davrida takomillashtirish strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son Farmoni: <https://lex.uz/docs/-5841063>
2. Azizxo'jayeva N.N., Avliyoqulov N.X. Zamonaviy kasbiy ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: TDPU, 2022. – 256 b.
3. Tolipov O'.Q., Jo'rayev R.X. Raqamli ta'lim muhitida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2023. – 184 b.
4. Xoshimova M.S. Kasbiy ta'limda mentorlik tizimini joriy etish tajribasi // Uzluksiz ta'lim. – 2023. – № 1. – B. 52–58.
5. Rahmonov A.A., Karimova D.M. Interfaol ta'lim usullarining kasbiy mahoratni shakllantirishdagi samaradorligi // Pedagogika. – 2022. – № 4. – B. 34–40.
6. Alimov R.X. Kasbiy kompetentlikni baholash va rivojlantirish: zamonaviy yondashuvlar. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2021. – 168 b.
7. Mahmudova G.B., Sultanova N.F. Raqamli texnologiyalar asosida kasbiy ta'limni tashkil etish // Ta'lim texnologiyalari. – 2023. – № 2. – B. 67–73.
8. Safarov O.G'. Zamonaviy mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlash. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 212 b.
9. Qodirova Z.Yu., Nuriddinova M.A. Onlayn ta'lim platformalarida kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish // Xalqaro ta'lim jurnali. – 2023. – № 3. – B. 45–51.
10. Qodirova N.R. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini raqamlashtirish // Science and Innovation. – 2022. – T. 1. – B. 109–111.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.